

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING BILIMLARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH

Shirnova Feruza Atxamovna,

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi

“O'zbek va xorijiy tillar” kafedrası dotsent v.b., PhD

Tel: 99 305 77 73

feruzashirnova12@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada nofilologik oliy ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tili fanidan bilimlarini rivojlantirishda va mustahkamlab borishda raqamli ta'lim muhitining roli va undan samarali foydalanish maqsadida pedagogik-didaktik loyihalash texnologiyasini takomillashtirilgani haqida yoritildi. Shu bilan birga ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirishning ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi kadrlar saviyasini oshirish, ta'lim tizimiga yangi ilmiy g'oyalar, zamonaviy yondashuvlar va uslublarni eksperimental joriy etish va ulardagi muammolarni bartaraf etish aks ettirilgan.

Tayanch so'zlar: raqamli ta'lim, mustaqil o'quv-biluv faoliyat, pedagogik-didaktik loyihalash, kasbiy-sohaviy kontent, raqamli iqtisodiyot.

РАЗВИТИЕ ЗНАНИЕ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ.

Аннотация

В данной статье освещено совершенствование технологии педагогического и дидактического проектирования с целью эффективного использования инструмента цифрового образования в развитии знания студентов по предметам английского языка нефилологического вуза. При этом одна из приоритетных задач реформирования системы образования, ее

совершенствования и повышения уровня качества находит свое отражение в повышении уровня кадров, экспериментальном внедрении в систему образования новых научных идей, современных подходов и методов, устранение своих проблем.

Ключевые слова: цифровое образование, самостоятельная учебная деятельность, педагогика-дидактическое проектирование, профессиональный контент, цифровая экономика.

DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE OF STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation

In this article, the role of digital education in the development of knowledge of students of non-philological higher education and the improvement of pedagogical and didactic design technology for the purpose of its effective use was highlighted. At the same time, one of the priority tasks of reforming the educational system, improving it and increasing the quality level is reflected in the improvement of personnel level, the experimental introduction of new scientific ideas, modern approaches and methods to the educational system, and the elimination of their problems.

Key words: digital education, independent educational activity, pedagogical and didactic design, professional content, digital economy.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirishning ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi kadrlar saviyasini oshirish, ta'lim tizimiga yangi ilmiy g'oyalar, zamonaviy yondashuvlar va uslublarni eksperimental joriy etish uchun murakkablik darajasi yuqori bo'lgan, chuqurlashtirilgan dasturlar asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, o'zgarib borayotgan mehnat bozori talabiga mos mutaxassislarni tayyorlash, innovatsion raqamli

iqtisodiyotda faol ishtirok etadigan va o'z turmush darajasini, aholi farovonligini ta'minlay oladigan ijtimoiy ko'nikmaga ega bo'lgan malakali yetuk inson darajasiga yetkazishni taqozo etmoqda.

Bugungi real vaziyat bizni rivojlangan mamlakatlar yo'lidan borishimiz va ularga tezroq yetib olishimizga undayapti. Bu ta'lim sohasida aynan elektron axborot tizimini faollashtirishni, jahonning yetakchi ta'lim muassasalarining tajribalaridan foydalanib, ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallashni taqozo qiladi. Demak, jamiyatimizning barcha qatlamlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasidagi savodxonlikni uzluksiz ravishda oshirib borish bugungi kunda nafaqat ehtiyoj, balki zaruratga aylandi.

Raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) - bu raqamli kommunikatsiyalar, informatsion texnologiyalar yordamida olib boriladigan iqtisodiyot bo'lib, unda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar ustuvor ahamiyatga ega, ilmiy sig'imkorlik yuqori bo'lgan tarmoqlarning ravnaq topishi ko'zda tutiladi. Ushbu atama dastlab 1995 yilda Massachuset universitetining informatika sohasi mutaxassisi Nikolas Negroponte tomonidan "atomlar harakatidan bitlar harakatiga o'tish metaforasi" mazmunida qo'llagan edi. Bugungi kunda ushbu atama butun dunyoda siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, biznesmenlar faoliyatida ham qo'llanmoqda [1].

Raqamli iqtisodiyotning ta'lim sohasiga kirib kelishi o'z-o'zidan raqamli ta'lim nima, u nima uchun kerakligi va u qanday amalga oshiriladi degan savollarni o'rta qo'ydi. Raqamli ta'lim – XXI asr talabi bo'lib, o'tgan asrlardan moslashib kelanimiz an'anaviy ta'limdagi kitob, qog'oz-qalamdan yangi asrning raqamli texnologiyalari va sun'iy intellekt kabilarga o'tishni anglatadi. An'anaviy hisoblangan qog'oz va qalamlarimizni o'rnini bugungi kunda aqlli texnologiyalar qatoriga kiruvchi smart telefonlar, planshetlar, turli hajmdagi kompyuterlar egalladi va ta'limni raqamlashtirish zamon talabiga aylandi. Zamonaviy yoshlar bugungi kunda o'z hayotini ushbu texnika vositalarisiz tasavvur qila olmaydi. Ta'limni raqamlashtirishning maqsadi ham global olamdagi tezkor o'zgarishlar,

jadval o'sib borayotgan innovatsiyalar oqimi bilan moslashib suza oladigan, intellektual (aqliy qobiliyati) yuqori bo'lgan bilimli yoshlarni tayyorlashni talab qilmoqda.

Masofaviy ta'lim ta'lim maskanlariga qatnash harajatlarini va vaqtni tejaydi, bu vaqt ichida talabalar boshqa manbalardan qo'shimcha yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'ldilar va barcha o'quv manbalaridan internet orqali foydalanish va hammaga bir-biri bilan yoki o'qituvchi bilan muloqotga kirish uchun shart-sharoit yaratib beradi.

Masofadan turib pedagog bilan qilingan muloqot odatda pedagog va talabalarning o'rtalarida sodir bo'ladi, talabalar tomonidan bajarib yuborilgan vazifalar natijalari faqat talabaning shaxsiy kabinetiga tushadi. Aynan shu holat talabalardagi tortinchoqlikni va ko'pchilik oldida past baholanib qolishdan qo'rquv hissini yengishga yodam beradi. Biror bir kamchilik yoki pedagog tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalardan talabaning o'zigina xabardor bo'ladi, u o'zi ustida yanada ko'proq ishlab, kamchiliklarini yo'qotish uchun shart-sharoit yaratiladi. Masofaviy ta'limning o'ziga hos tamoyillari ham mavjud bo'lib, ushbu tamoyillar o'z ichiga qator maqsadli vazifalarni ham yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'limning samaradorligi o'quv materiallarining to'g'ri taqdim etilishiga ham bog'liq bo'lib, biroq bugungi kungacha masofaviy ta'lim texnologiyalari yordamida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni pedagogik-didaktik loyihalash masalasi nazariy jihatdan ham yetarlicha asoslanmaganligi, xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlarga yo'naltirilgan nofilologik ta'lim yo'nalishlarda talabalarning sohaviy chet tilidan mustaqil ishlarini raqamli ta'lim muhitida samarali boshqarish, ularni qabul qilish va baholash shakllari ishlab chiqish davr talabiga aylanib bormoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaev N. Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi. // J. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar. – T., 2020. – №2. – B. 76-79.

2. Islomov A.A. Raqamli iqtisodiyotda ta'lim tizimining o'rni / J. Oliy ta'lim: Muammo va yechimlari.– T., 2020.– №1. – B. 99.
3. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., To'raev A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T., 2015.– B.179.
4. Bayne S., Ross J. The pedagogy of the Massive Open online Course. // J. The Higher education academy.– UK., 2013. – №9. – P. 238
5. Гозман Л.Я., Шестопап Е.Б. Дистанционное обучения на пороге XXI века. / Монография,– Россия.,1999.